

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2021-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2021, № 6

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga** kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamudov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saldjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО **Научно-теоретический и методический журнал**

№ 6, 2021

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решения ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped_mahorat@mail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Ялакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Кямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)

Abdullo INOYATOV

Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KEKSALARNI SOG'LOMLASHTIRISH MUAMMOLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Ushbu maqolada keksalar orasida kasallik sonini kamaytirish maqsadida ularni diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish, birlamchi tibbiyot tizimidagi mutaxassislarining bilimni muntazam ravishda uzliksiz oshirish, aholi o'rtasida keng qamrovli xatlovlarni, chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikni olib borish va dispanser nazoratini takomillashtirish hamda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: gerontologiya, geriatriya, patologiya infarkti, insult, qandli diabet, noinfektsion kasalliklar.

В статье рассматриваются проблемы совершенствования механизмов их диагностики с целью снижения количества заболеваний среди пожилых людей, регулярного обучения специалистов первичного звена, комплексных переписей населения, углубленных медицинских осмотров и диспансерного контроля, а также формированию здорового образа жизни среди населения.

Ключевые слова: геронтология, гериатрия, патология инфаркт, инсульт, диабет, неинфекционные заболевания

The article discusses the problems of improving the mechanisms of their diagnosis in order to reduce the number of diseases among the elderly, regular training of primary care specialists, comprehensive population censuses, in-depth medical examinations and dispensary control, as well as the formation of a healthy lifestyle among the population.

Key words: gerontology, geriatrics, pathology, heart attack, stroke, diabetes, non-communicable diseases

Kirish. Vazirlar Mahkamasining 23.05.2020-yildagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shaharlarda nuroniylar jamoatchilik kengashlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 326-son qarori qabul qilindi.

Prezidentning "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmonida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shaharlarda Nuroniylar jamoatchilik kengashlari tashkil etiladi. Keksalarni qo'llab-quvvatlash sohasiga oid qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlashga ko'maklashish, muammolarni monitoring va tahlil qilish, yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlar va boshqalarga taalluqli muammolar bo'yicha takliflar ishlab chiqish ularning asosiy vazifalari hisoblanadi.

2. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari o'rinbosarlari Nuroniylar jamoatchilik kengashlari raislari tomonidan tayinlanadi.

3. Nuroniylar jamoatchilik kengashlari to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

Asosiy qism. Respublikada ilk marotaba gerontologiya xizmati 2002-yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan "Gerontologiya va geriatriya" mutaxassisligi tasdiqlangan. Ushbu muammolarni optimallashtirish va bartaraf etish maqsadida ijtimoiy xizmat ko'rsatish normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat shakllari va sifatini oshirish, maqsadli davolash va sog'lomashtirish, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya chora-tadbirlari va gerontologiya xizmatini kuchaytirish, shuningdek, yolg'iz keksalar, qariyalar, pensioner va nogironlarning uy-joy-maishiy sharoitini hamda tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash dasturini ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-mayda "2011-2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1542-son qarori qabul qilingan.

Shuni ta'kidlash lozimki respublika miqiyosida gerontolog va geriatr mutaxassislari vertikal tizimi mavjud emas, ya'ni viloyatlarda mutaxassislar va bosh mutaxassislar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son Farmoniga muvofiq qariyalar va keksa yoshdagi fuqarolar uchun uzoq muddatli tibbiy yordamning zamonaviy modelini

yaratish, gerontologik parvarishning sifati va undan foydalanishni takomillashtirish, gerontologiya va geriatriya xizmatini rivojlantirish maqsadida ma'lum ishlar amalga oshirildi:

1. Keksa yoshdagi bemorlarda kasallik sabablarini aniqlash, davolash va oldini olish xususiyatlarini o'rganish maqsadida gerontologiya muammolari bo'yicha barcha tor soha yo'nalishidagi mutaxassislarining malakasining oshirilishiga yo'naltirildi. Gerontologiya va geriatriya xizmat ko'rsatish bo'yicha treninglar olib borilib, oxirgi 5 yil davomida 1300 nafardan ortiq shifokor yoshga bog'liq patologiya va keksa bemorlarni davolash uchun mutaxassislarning malakasini oshirishga erishildi. 2019-yilning o'tgan davri mobaynida 100dan ortiq terapevt, kardiolog, UAV va boshqa terapevtik yo'nalishdagi tor mutaxassislari ToshVMOI kardiologiya va gerontologiya kafedrasida qoshida keksa yoshli bemorlarga o'ziga xos yurak qon tomir tizimi xastaliklarining kechishi va davolash standartlari asosida o'qitildi. Shu bilan birgalikda joylarda, jumladan, Xorazm (144 soatli), Toshkent (144 soatli), Namangan (144 soatli) viloyatlarida sayyor sikllar tashkil etilib, tor soha mutaxassislarining malakasi oshirildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Tibbiy faoliyat amalga oshiriladigan tibbiy ixtisosliklar turlari" nomenklaturasida "geriatriya ishi" mutaxassisligi keltirilgan. Ammo mamlakatimizdagi OTMlarda "gerontologiya", "geriatriya ishi" mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriatura va magistratura qabul kvotalari mavjud emas.

3. Olib borilgan ishlar bilan bir qatorda gerontologiya va geriatriya xizmatini takomillashtirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

a) keksalarga va qariyalarga ko'rsatiladigan tibbiy-sotsial xizmatni takomillashtirishga mo'ljallangan profilaktika xizmatini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari qoshida gerontologik xonalarni tashkil etish;

b) keksa yoshli bemorlarni, qariyalarni shu qatorda yolg'iz qariyalarni ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan va h.k.larga ko'rsatiladigan tibbiy-profilaktik yordam ko'rsatish jarayonini takomillashtirish uchun viloyatlarda boshqarma vertikalining strukturasi tuzish, bosh mutaxassis va kadrlar tayyorlash lozim;

d) mamlakatimizda OTMlarda tor doiradagi ixtisoslik turlari bo'yicha "gerontologiya" va "geriatriya ishi" mutaxassisliklari bo'yicha o'qitish tizimini joriy qilish, "Gerontologiya" va "Geriatriya" fanlarini o'qitish ko'lamini kengaytirish zarur. Tibbiy xizmatlar sohasida gerontologik parvarishni va geriatriyani rivojlantirish va uni rag'batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish zarur.

Toshkent viloyati Chinoz tumani aholisiga kardiologik yordam ko'rsatish maqsadida 2021-mart oyida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining (SSVning) 24.12.2014-yil 485-sonli buyrugi "MKB 10ga asosan nozologiyalar bo'yicha tez tibbiy yordam ko'rsatish standartlari", O'zbekiston Respublikasi SSVning 17.03.2014-yil 106-sonli buyrug'i "O'tkir koronar sindrom / o'tkir miokard infarkti bilan og'rikan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi SSVning 17.09.2014-yildan 422-sonli buyrug'i "Об улучшении оказания диагностической и лечебно-профилактической помощи больным с АГ", O'zbekiston Respublikasi SSVning 2020-yil 15-avgust 200-sonli "Bemorlarga ambulator yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish choralari to'g'risida"gi buyruqlari bo'yicha ish olib boradi.

Kardiologik kasalliklarning 11 xil nozologiyasi bo'yicha jami 243ta "D" nazoratiga olingan bemor tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va tavsiyalar berildi.

Keksa yoshdagi fuqarolarda o'tkir va surunkali respirator kasalliklar hamda yurak qon-tomir xavfningi (gipertoniya, yurak ishemik kasalligi, infarkt, insult, qandli diabet va boshqa xavf omillarini) aniqlash bo'yicha tizimli ravishda skrining tekshiruvlarini o'tkazish va noinfektsion kasalliklar xavf omillarini aniqlash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xavfli omillarga qarshi kurashish chora-tadbirlari birlamchi va ikkilamchi profilaktika chora-tadbirlarini olib borish va aholini tibbiy madaniyatini oshishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida aholi salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shunday maqsadlar yo'lida Senatning Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamkorligida 2021-yilning 3-6-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni yanada yaxshilash, "temir daftar" va "ayollar daftariga" kiritilganlarga xonadonbay tibbiy maslahat berish maqsadida sog'liqni saqlash vazirligining terapiya yo'nalishidagi bosh mutaxassislari – bosh terapevti, bosh gastroenterologi, bosh revmatologi, bosh gerontologi, bosh oylaviy shifokorlari Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri, Qo'ng'iroq, Chimboy, Kegeli va Beruniy tumanlariga xizmat safari tashkil etildi hamda hududlarda "xonadonbay" tizimi asosida uy-uy yurib nogironligi bor, hozirda to'shakda qolgan bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi.

Muhokamalar va natijalar. Olib borilgan tibbiy ko'rik natijalari quyidagilarni ko'rsatdi: jami tekshirish jarayonida ishtirok ekanlardan 226 nafar bemorlar ixtisoslashtirilgan tibbiy ko'rikka va davolashga muhtojligi aniqlandi va ulardan 211 (93,4%) nafar bemorlar turli davolash profilaktika muassasalariga

davolanishga yuborildi hamda 11 (4,9%) nafar bemor respublika ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlariga yuborildi.

Tumanlar kesimidagi tahlil natijalari quydagilarni ko'rsatdi: Beruniy tumanida ko'rikda ishtirok etgan 107 nafar bemorlar orasida asosan yurak qon tomir kasalliklari 26%, o'pka nafas yo'llari kasalliklari 48%, bo'g'im umurtqa pog'onasi kasalliklari 38% va boshqa turli surunkali xastaliklar aniqlandi. Chimboy tumanida asosan oshqozon ichak tizimi xastaliklari, yurak qon tomir kasalliklari va bo'g'im umurtqa pog'onasi kasalliklari ustunligi aniqlandi. Ushbu xastaliklarning keng tarqalishi Qo'ng'iro't va Kegeli tumanlarda ham kuzatildi hamda alohida ta'kidlash lozimki, Chimboy va Qo'ng'iro't tumanlarda ko'rikdan o'tkazilgan bemorlar orasida 46%ni revmatologik bemorlar tashkil etdi.

Tibbiy ko'riklarda ishtirok etgan gastroenterolog, kardiolog, revmatolog, gerontolog, terapevt va boshqa shifokorlar bemorlarni tashxislash va davolash muolajalari bo'yicha maslahatlar bilan bir qatorda, parhez, jismoniy mashqlar, kasallik asoratlari profilaktikasi hamda birlamchi bo'g'inda kuzatish bo'yicha ham kerakli tavsiyalar berishdi.

Shunday qilib, "xonadonbay" tizimida maslahatlar berilishi bemorlar davolanishi samaradorligining oshishiga va asoratlarning oldini olishga hamda diagnostika va davolash uchun joylardagi imkoniyatlarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarga izoh sifatida shuni ta'kitlash lozimki, kasallik sonini kamaytirish maqsadida ularni diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish, birlamchi tibbiyot tizimidagi mutaxassislarini bilimini muntazam ravishda uzluksiz oshirish, aholi o'rtasida keng qamroviy hatlovlarni, chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarni olib borish va dispanser nazoratini takomillashtirish hamda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish, xavfli omillarga, xususan, kamharakatlik, og'ir vazin, noto'g'ri, noratsional ovqatlanish, tamaki chekish, arterial bosimning oshishi va boshqa omillarga qarshi kurashish chora-tadbirlari birlamchi va ikkilamchi profilaktika chora-tadbirlarini olib borish va aholini tibbiy madaniyatini oshishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Александрова М.Д. Старение: социально-психологический аспект // Психология старости и старения: Хрестоматия / Сост. О.В. Краснова, А.Г. Лидерс. - М.: Академия, 2003. - с. 189.
2. Альперович В. Проблемы старения: Демография, психология, социология. - М.: Астрель; АСТ, 2004. - 352 с.
3. Амосов Н.М. Физические упражнения // Преодоление старости. - М.: Будь здоров, 1996. - с. 45.
4. Анисимов В.Н. Средства профилактики преждевременного старения (гетеропротекторы) // "Успехи геронтологии". — 2000. — Вып. 4. — С. 275 -277.
5. Анцыферова Л.И. Психология старости: особенности развития личности в период поздней зрелости. // Психол. ж. — 2001. — т. 22, № 3. — С.3 -15.
6. Артюнина Г. П. Основы медицинских знаний и здорового образа жизни. – Псков, 2009. – Академический проект. – 766 с.
7. Веселкова И.Н., Землянова Е.В. Проблемы здоровья и медико-социального обслуживания пожилых людей // Психология старости и старения: Хрестоматия / Сост. О.В. Краснова, А.Г. Лидерс. - М.: Академия, 2003. - С.289-294.
8. Виноградов П.А., Душанин А.П., Жолдак В.И. Основы физической культуры и здорового образа жизни. – М.: Советский спорт, 1996. – 588 с.
9. Гамезо М.В., Герасимова В.С., Горелова Г.Г., Орлова Л.М. Возрастная психология: Личность от молодости до старости. - М., 1999. - с.467.
10. Давидовский И.В. Геронтология. — М.: Медицина — 1966 — с. 300.
11. Дубровский В. И. Лечебная физкультура и врачебный контроль: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Медицинское информационное агентство, 2006. – 600 с.
12. Донцов В. И., Крутько В. Н., Подколзин А. А. Старение: механизмы и пути преодоления. - М.: 1997. - 176с.